

“TASDIQLAYMAN”

O‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy-
tadqiqot instituti direktori v.v.b.,

Jamoatchilik kengashi raisi

A.R.Anorbayev

2023-yil

O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi xuzuridagi

Jamoatchilik kengashi yig‘ilishining 1-sonli

BAYONNOMASI

7-iyun 2023-yil

Qibray tumani

Ilmiy kengash raisi: A.R.Anorbayev - O‘simliklar karantini va himoyasi
ilmiy-tadqiqot instituti direktori v.v.b.

Yig‘ilish kotibi A.Kadirov - O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi
Yig‘ma axborot-tahlil boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari.

Qatnashdilar: Kengash raisi o‘rinbosari O.Sulaymonov, kengash
azolari: X.Kimsanbaev, Q.Bobobekov, A.Ma‘rupov,
N.Tufliev, U.Raximov, A.Xudoyqulov, B.Boltaev,
S.Sadinova, D.Zufarova, J.Salixov, SH.Xudoyberdiev,
O‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti
xodimlar.

Taklif qilinganlar: Agentlik bosh boshqarmasining tegishli xodimlar

KUN TARTIBI:

1. O‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot institutining 2023-
2025-yillar uchun tuziladigan Jamoa shartnomasi loyihasini muhokama qilish
to‘g‘risida.

Majlisning borishi

Yig‘ilishni O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi huzuridagi
Jamoatchilik kengashi raisi o‘rinbosari O.Sulaymonov kirish so‘zi bilan ochiq deb
e‘lon qildi. So‘ngra yig‘ilishning kun tartibidagi masala O‘simliklar karantini va
himoyasi ilmiy-tadqiqot institutining 2023-2025-yillar uchun tuziladigan Jamoa
shartnomasi loyihasini muhokama qilish uchun taklif etilganliklarini aytib o‘tdi.

O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi
a‘zosi hamda O‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti Kasaba
uyushmasi qo‘mitasi raisi Q.Bababekov O‘zbekiston Respublikasi Mehnat

Kodeksining 38-40-moddalariga muvofiq, Jamoa shartnomasi loyihasini tayyorlash va mehnat jamoasining umumiy yig'ilishi (konferensiyasi) da muhokama qilish belgilangan. 2023-yil Ilmiy-tadqiqot instituti rahbariyati va kasaba uyushmasi qo'mitasi o'rtasida xodimlarni ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy manfaatlarini himoyasiga qaratilgan Jamoa shartnomasi loyihasi ishlab chiqilganligi, O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti xodimlari jamoa shartnomasi bilan tanishishlari uchun monitor orqali qo'yib berilishini va muhokamasi olib borilishini taklifini berdi.

O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti laboratoriya mudiri B.Murodov tomonidan jamoa shartnomasidagi bandlardagi imloviy xatolar tuzatilish lozimligi hamda O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti nomiga qo'shimcha tarzda va uning mintaqaviy filiallari deb ham kiritish maqsadga muvofiqligini bildirdi.

O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti kichik ilmiy xodim M. Imomova 0,5 shtat birligida ishlayotgan xodimlarga nega premiya va rag'batlantirish mablag'lari to'liq berilmayaptkanligi va buni asoslantirish uchun albatta jamoa shartnomasida ko'rsatib berishlari kerakligini aytib fikr bildirdi.

O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti bosh hisobchi K.Bobojonov yuqoridagi fikrga oydinlik kiritib O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 18-oktyabrdagi "O'rindoshlik asosida hamda bir necha kasbda va lavozimda ishlash tartibi to'g'risidagi" Nizomning 15-bandida "Agar jamoaviy shartnomada yoxud ish beruvchi tomonidan kasaba uyushma qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi bilan kelishgan holda qabul qilingan boshqa mahalliy hujjatda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, o'rindoshlik asosida ishlovchilarga mehnat haqi, mukofot, qo'shimcha haq, ustama, rag'batlantirish to'lovlari shakli va tizimi tashkilotning barcha xodimlari uchun belgilangan tartibda amalga oshiriladi." albatta jamoa shartnomasida bu masalaga ham to'xtalib o'tilishi va ko'rsatib ketishini aytib o'tdi.

O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti laboratoriya mudiri N.Tufliyev jamoa shartnomaga xodimlarni har yili 1 marotaba tibbiy ko'rikdan o'tkazilishlari va bunda xarajatlar Ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan qoplab berilishi taklifini berdi va ushbu taklif yig'ilishda qatnashayotgan barcha xodimlarga maqul keldi va jamoa shartnomasiga kiritildi.

O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti katta ilmiy xodim B.Akramov tomonidan tashkilotta ish vaqti yani xodimlarning ishga kelish va ishdan ketish soatlarini aniq belgilab Jamoa shartnomasiga kiritish taklifini berdi.

O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti kasaba uyushmasi qo'mitasi a'zosi D.Saypiyeva tomonidan yana bir taklif xodimlarga ta'til kunlarini belgilashda O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida" 2019 yil 29-oktyabrdagi O'RQ-576-sonli Qonuniga muvofiq "Xodimga umumiy davlat tashkilotlaridagi mehnat faoliyatidan kelib chiqib har besh yil uchun davomiyligi ikki kalendar kun bo'lgan, biroq jami sakkiz kalendar kundan ko'p bo'lmagan har yilgi qo'shimcha mehnat ta'tili qo'shimcha ravishda beriladi. Bunda

jami ta'tillarning davomiyligi 56 kalaendar kundan oshmastligi lozim" deb fikr bildirdi va bu ham barcha qatnashchilar tomonidan bir ovozdan maqullandi.

Loyihani tayyorlash jarayoni komissiya tomonidan Qonunchilikka kiritilgan o'zgarishlar, Xalqaro mehnat tashkiloti Konvensiyalari, jamoa shartnomalar me'yorlari hamda xodimlarning taklif va mulohazalari inobatga olindi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda mehnat jamoasining konferensiyasi tomonidan quyidagicha qaror qiladi


QAROR QILINDI:

1. O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti Jamoa shartnomasi loyihasini tayyorlash bo'yicha komissiya tomonidan ishlab chiqilgan 2023-2025-yillar uchun tuzilgan Jamoa shartnomasi loyihasi ma'qullansin.

2. 2023-2025-yillar uchun tuziladigan O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti Jamoa shartnomasi loyihasi Agrosanoat majmui xodimlari kasaba uyushmasi Toshkent shahar birlashgan qo'mitasiga ro'yhatdan o'tkazilib, tasdiqlash uchun topshirilsin.

Ushbu qaror ijrosini ta'minlash o'simliklar karantini va himoyasi agentligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi raisi o'rinbosari O.Sulaymonov zimmasiga yuklatilsin.

Yig'ilish kotibi



A.Kadirov